



AYOLLAR VA BOLALARNI OILAVIY ZO'RAVONLIKDAN HIMOYA QILISHDA HUQUQIY KAFOLATLARNI TAKOMILLASHTIRISH: MUAMMOLAR, XORIJIY TAJRIBA VA TAKLIFLAR

IMPROVING LEGAL GUARANTEES FOR PROTECTING WOMEN AND CHILDREN FROM DOMESTIC VIOLENCE: PROBLEMS, FOREIGN EXPERIENCE AND PROPOSALS

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21926972>

Muallif: **Raimova Bargida Chori qizi**
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi talabasi
E-mail: raimovabargida@gmail.com

Annotatsiya: Oilaviy zo'ravonlik zamonaviy huquqiy tizimlar uchun hamon yetarli darajada tartibga solinmagan murakkab va ijtimoiy jihatdan og'ir muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligining amaldagi holati xorijiy davlatlar — Ispaniya, Germaniya, Turkiya, Qozog'iston va Buyuk Britaniya tajribasi bilan qiyosiy tahlil qilingan. Mazkur davlatlarning oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashda shakllantirgan institutsional va normativ-huquqiy mexanizmlari alohida ko'rib chiqilgan. Ayollar va bolalar kabi ijtimoiy jihatdan himoyaga muhtoj toifalarning huquqiy ahvoli o'rganilgan, mavjud qonunchilik bo'shliqlari hamda amaliyotdagi muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etishning mumkin bo'lgan yo'nalishlari asoslab berilgan. Xalqaro standartlar hisoblanuvchi Istanbul konvensiyasi, BMT Deklaratsiyasi va CEDAW shartnomasi taqqoslash uchun mezon sifatida qo'llanilgan holda, O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan huquqiy islohotlar bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: oilaviy zo'ravonlik, ayollar huquqlari, bolalar himoyasi, huquqiy kafolatlar, Istanbul konvensiyasi, qiyosiy huquq, profilaktika mexanizmlari, gender asosidagi zo'ravonlik, himoya orderi.

Abstract: Domestic violence remains one of the most complex and socially pressing challenges yet to be adequately addressed by contemporary legal systems. This study examines the current state of the Republic of Uzbekistan's national legislation in comparative perspective with the experience of five foreign jurisdictions — Spain, Germany, Turkey, Kazakhstan and the United Kingdom with particular attention to the institutional and normative-legal mechanisms each has developed in combating domestic violence. The legal situation of socially vulnerable groups, namely women and children, is analysed; existing legislative gaps and practical shortcomings are identified, and viable



directions for addressing them are substantiated. Drawing on international standards the Istanbul Convention, the UN Declaration on the Elimination of Violence against Women and the CEDAW treaty as comparative benchmarks, the study puts forward practical proposals for legal reforms tailored to the Uzbek context.

Keywords: *domestic violence; women's rights; child protection; legal guarantees; Istanbul Convention; comparative law; prevention mechanisms; gender-based violence; protection order.*

Oilaviy zo'ravonlik — bu nafaqat bitta oila doirasidagi shaxsiy fojia emas, balki ijtimoiy tizimning strukturaviy nuqsonini aks ettiruvchi kompleks huquqiy va insoniy hodisadir. Ushbu muammo barcha madaniyat, din va ijtimoiy qatlamlarda uchraydi, biroq kuchsiz toifalar ya'ni ayollar va bolalar uning eng og'ir oqibatlarini boshidan kechirishadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining (JSST) 2021-yilgi yirik global tadqiqoti natijalari shuni ko'rsatdiki, dunyo bo'ylab har uchta ayoldan biri hayotida kamida bir marta jismoniy yoki jinsiy zo'ravonlikning qurboni bo'lgan.¹

O'zbekiston Respublikasida ham ushbu muammo ijtimoiy dolzarbligini yo'qotmagan. Oila va xotin-qizlar masalalari agentligining 2022-yildagi hisobotiga ko'ra, yil davomida oilaviy zo'ravonlik bilan bog'liq 7 500 dan ortiq rasmiy murojaat qayd etilgan. Biroq mutaxassislar real holat rasmiy statistikadan ancha yuqori ekanligini ta'kidlashmoqda, chunki ko'plab jabrdiydalar ijtimoiy bosim, iqtisodiy qaramlik va huquqiy bilimlarning yetarli emasligi tufayli murojaat qilishdan qo'rqishadi.²

O'zbekiston 2019-yilda "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida" gi Qonunni qabul qildi. Bu qadam milliy huquqiy tizimda shubhasiz muhim yutuq sifatida baholanishi lozim. Lekin qonunning amaliy tatbiq etilishi jarayonida bir qator tizimiy muammolar yuzaga chiqdi: tushunchalar tizimining noaniqligi, himoya buyrug'i institutining zaifligi, jabrdiydalar uchun mo'ljallangan ijtimoiy infrastrukturaning yetarlicha rivojlanmaganligi. Bu muammolar qonunchilikni yanada takomillashtirish zaruratini ko'rsatadi.³ Ushbu maqolaning asosiy maqsadi O'zbekiston milliy qonunchiligidagi mavjud kamchiliklarni aniqlash, bir nechta xorijiy davlat tajribasini qiyosiy tahlil qilish va O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan amaliy taklif-mulohazalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanilgan: tarixiy-huquqiy tahlil, qiyosiy huquqshunoslik usuli, tizimli tahlil va induksiya. Asosiy manba sifatida normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro shartnomalar, huquqshunoslik tadqiqotlari va statistik ma'lumotlar xizmat qilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda birinchi marta



O'zbekiston Respublikasining 2019-yilgi maxsus Qonuni bir nechta xorijiy davlat qonunchiligi bilan keng qamrovli qiyosiy tahlil qilingan va o'zbek ijtimoiy-huquqiy kontekstiga moslashtirilgan to'qqizta yo'nalishli taklif asoslab berilgan.

Oilaviy zo'ravonlik sohasidagi huquqiy va ijtimoiy tadqiqotlar XX asrning ikkinchi yarmidan keskin rivojlandi va fan sifatida shakllanib bordi. Ushbu sohadagi klassik asarlardan biri — R.E. Dobash va R.P. Dobash-ning fundamental tadqiqotidir. Mualliflar o'z ishlarida zo'ravonlikning patriarxal ijtimoiy tuzum va kuch munosabatlari bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatib, zo'ravonlikni nafaqat shaxsiy fojia, balki ijtimoiy-siyosiy hodisa sifatida talqin qilishni taklif etdilar.⁴

Amerikalik psixolog L.E. Walker "The Battered Woman" asarida zo'ravonlik siklining uch bosqichli modelini ishlab chiqdi: birinchi bosqich — kuchlanishning ortib borishi (tension building), ikkinchi bosqich — zo'ravonlik harakatining amalga oshirilishi (acute explosion), uchinchi bosqich — yarashish yoki "asal oyi" (reconciliation/honeymoon). Ushbu model jabrdiydalarning nima uchun munosabatni tark etish qiyinligi haqidagi tushunmovchiliklarni bartaraf etishga xizmat qilgan va bugungi kunda ham klinitsistlar hamda huquqshunoslar tomonidan keng qo'llanilmoqda.⁵

Tadqiqotchi M.P. Johnson zo'ravonlik turlarining tipologiyasini ishlab chiqib, "patriarxal terrorchilik" va "vaziyatga bog'liq juft zo'ravonlik"ni

farqlash zarurligini asoslab berdi. Johnson fikricha, ushbu ikki turga bir xil huquqiy muomala qilish o'ta noto'g'ri bo'lib, sudlar ushbu tafovutni nazarda tutishi shart.⁶

O'zbek huquqshunosligida ham bu soha rivojlanib bormoqda. X. Toshmatov o'z monografiyasida O'zbekiston Respublikasida oila huquqining shakllanish bosqichlarini ko'rib chiqib, milliy huquqiy an'ana bilan zamonaviy xalqaro standartlar o'rtasidagi munosabatlar masalasini yoritgan.⁷

D. Yusupova oilaviy zo'ravonlikka qarshi milliy qonunchilikni tahlil qilgan holda zo'ravonlikning faqat jismoniy ko'rinishiga e'tibor qaratilayotganligini, psixologik va iqtisodiy zo'ravonlik shakllarini tartibga soluvchi me'yorlarning esa yetarli darajada rivojlanmaganligini asoslab ko'rsatgan.⁸

Xalqaro jihatdan S. Walby Buyuk Britaniyada oilaviy zo'ravonlikning iqtisodiy narxini hisob-kitob qilib, u yillik 23 mlrd funt sterlingni tashkil etishini aniqlagan. Ushbu miqdorga shifoxona xarajatlari, huquqiy jarayonlar, mahsuldorlik yo'qotishlari va psixologik yordam xizmatlari kiradi. Walby xulosasi bo'yicha oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurash iqtisodiy jihatdan ham davlatga foyda keltiradi.⁹

Yuqoridagi adabiyotlar sharhidan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, oilaviy zo'ravonlik muammosi ko'p qirrali bo'lib, uni faqat jinoyat huquqi doirasida ko'rib chiqish yetarli emas. Samarali yechim faqat kompleks yondashuv — qonunchilik, institutsional tuzilma,



ijtimoiy xizmatlar va profilaktika choralari uchun uyg'unlashgandagina mumkin bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida oilaviy zo'ravonlikka qarshi huquqiy tartibga solish uchta asosiy yo'nalishda shakllangan:

Birinchi yo'nalish, umumiy jinoyat huquqi normalari. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 104-moddasi (qasddan og'ir tan jarohati yetkazish), 110-moddasi (qiynoqqa solish), 121-moddasi (jinsiy zo'ravonlik) va 1261-moddasi (oilaviy maishiy zo'ravonlik) oilaviy zo'ravonlik holatlarida bevosita qo'llanilishi mumkin bo'lgan normalar hisoblanadi.¹⁰

Ikkinchi yo'nalish, bu maxsus qonunchilik. "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonun oilaviy zo'ravonlikni mustaqil huquqiy hodisa sifatida belgilab berdi. Bu qonun zo'ravonlikning to'rtta shaklini — jismoniy, psixologik, jinsiy va iqtisodiy — normativ ravishda ta'riflagan bo'lib, bu milliy qonunchilikning muhim yutuqi hisoblanadi.¹¹

Uchinchi yo'nalish esa gender tengligi qonunchiligi. "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonun gender tengligi tamoyilini milliy huquqiy tizimga qonunchilik darajasida rasman kiritdi va zo'ravonlikning oldini olish uchun institutsional zamin yaratdi.¹²

Amaldagi huquqiy muammolarni ko'rib chiqadigan bo'lsak, milliy qonunchilikni sinchkovlik bilan tahlil

qilish quyidagi tizimiy muammolarni ko'rsatadi:

Birinchi muammo, "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonunda "psixologik zo'ravonlik"ning aniq belgilarini aniqlash mezonlari ko'rsatilmagan, bu esa tushunchalar tizimining noaniqligini keltirib chiqaradi. "Iqtisodiy zo'ravonlik" tushunchasi qonunda bor, biroq u yetarlicha keng ta'riflanmagan: iqtisodiy resurslardan mahrum qilish, mehnat faoliyatiga to'siq qo'yish yoki moliyaviy qaram holga solib qo'yish kabi xatti-harakatlar tarkibiy belgilar sifatida sanalmagan. Bu holat huquq qo'llovchi organlar tomonidan turlicha talqin etilishiga sabab bo'lmoqda.

Ikkinchi muammo, himoya buyrug'i institutining zaifligi ya'ni Qonun "profilaktika muomalasi chorasi" ko'rinishidagi himoya mexanizmini nazarda tutadi. Biroq bu choraning muddati 30 kun bilan cheklangan bo'lib, uzaytirish imkoniyati amalda samarali ishlamayapti. Bundan tashqari, buyruqni buzganligi uchun sanksiyalar deterrent ta'sir ko'rsatishga yetarlicha kuchli emas: zo'ravon ko'pincha faqat ogohlantirish bilan cheklanib qolmoqda.

Uchinchi muammo — ijtimoiy infrastrukturaning zaif rivojlanishidir. UNICEF tomonidan 2022-yilda amalga oshirilgan monitoring natijalari respublika bo'ylab faoliyat ko'rsatayotgan ixtisoslashtirilgan boshpanalar (krizis markazlar) sonining 12 ta bilan cheklanganligini ko'rsatdi. BMT



me'yoriga ko'ra esa har 10 000 aholiga kamida 1 ta boshpana o'rni bo'lishi lozim.

To'rtinchi muammo bu - bolalarni "guvoh jabrdiyda" sifatida himoya qiluvchi normaning yo'qligi hisoblanadi. Amaldagi qonunchilik oilaviy zo'ravonlikni bevosita kuzatgan bolalarni huquqiy jabrdiyda sifatida tan olmaydi. Jismoniy jarohat ko'rmagan bola hech qanday maxsus huquqiy himoyadan foydalana olmaydi, holbuki zamonaviy travmatologiya sohasidagi ilmiy tadqiqotlar bunday bolalarda uzoq muddatli psixologik shikast qolishini tasdiqlagan.

Beshinchi muammo sifatida ixtisoslashtirilgan kadrlarning yetishmovchiligini yaqqol misol qilish mumkin. Ko'pgina tuman va shahar sudlarida gender asosidagi zo'ravonlik masalalarida maxsus tayyorgarlikdan o'tgan mutaxassislar yo'q. Bu holat jabrdiydalarning sud jarayonida ikkilamchi travmaga uchrash xavfini oshiradi. Politsiya xodimlarining dastlabki murojaat bosqichidagi xulq-atvori ham ko'pincha muammolar yuzaga chiqishiga sabab bo'lmoqda.

Yevropa Kengashining oilaviy zo'ravonlik va ayollarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish hamda ular bilan kurashish to'g'risidagi konvensiyasi, Istanbul konvensiyasi kabilar xalqaro huquqdagi eng keng qamrovli va normativ jihatdan eng rivojlangan hujjat sifatida tan olingan. Konvensiya ratifikatsiya qilgan davlatlar uchun "To'rt P" tamoyilini belgilab bergan: oldini olish (Prevention), himoya qilish (Protection),

ta'qib qilish (Prosecution) va kompleks siyosat (integrated Policy).¹³

BMT Bosh Assambleyasining ayollarga nisbatan zo'ravonlikning bartaraf etilishi to'g'risidagi Deklaratsiyasi (1993, 48/104-sonli rezolyutsiya) va CEDAW shartnomasi (1979) ham O'zbekiston uchun yuridik jihatdan majburiy xalqaro standartlar hisoblanadi. O'zbekiston CEDAW-ni 1995-yilda ratifikatsiya qilgan va ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishini muntazam ravishda BMT qo'mitasiga hisobot shaklida taqdim etib kelmoqda.¹⁴

Ispaniya gender asosidagi zo'ravonlikka qarshi kurashda Yevropada eng rivojlangan huquqiy tizimlardan birini shakllantirgan. 2004-yilda qabul qilingan 1/2004-sonli Organik Qonun (Ley Orgánica 1/2004) uchta asosiy ustunni birlashtiradi: maxsus gender zo'ravonligi sudlari tarmog'i, jabrdiydalar uchun bepul va majburiy yuridik yordam kafolati hamda ixtisoslashtirilgan prokuratura bo'limlari.¹⁵ Ispaniya tajribasining eng muhim jihati elektron monitoring bilan ta'minlangan "masofani saqlash buyrug'i" (orden de alejamiento) institutining samarali ishlashidir. Buyruqni buzish avtomatik ravishda jinoyat ishi qo'zg'atilishiga olib keladi. Ixtisoslashtirilgan sudlarning 2015-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, ushbu monitoring tizimi joriy etilgandan keyin oilaviy zo'ravonlik natijasidagi o'lim holatlari 30% ga kamaygan.¹⁶ Ispaniyaning ixtisoslashtirilgan sudlari — Juzgados de Violencia sobre la Mujer — 2022-yilga



kelib butun mamlakat bo'ylab 100 dan ziyod shaharda faoliyat ko'rsatmoqda. Bu sudlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular jinoyat ishini ko'rib chiqibgina qolmay, balki bir vaqtning o'zida fuqarolik masalalarini — bola vasiyatini, alimentni va uy-joy bo'linishini ham hal etadi.¹⁷

Germaniyada oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashning huquqiy asosini 2002-yilda qabul qilingan Zo'ravonliklardan himoya qilish to'g'risidagi Qonun — Gewaltschutzgesetz (GewSchG) tashkil etadi. Qonunning asosiy innovatsiyasi shundaki, jabrdiyda bilan zo'ravon bir uyda yashasalar ham, jinoyat ishi qo'zg'atilmasdan — faqat fuqarolik sudi buyrug'i asosida — zo'ravonni uydan chiqarish mumkin bo'ladi.¹⁸ Germaniya modelining ahamiyatli xususiyati mulkiy munosabatlarning himoya buyrug'iga to'siq bo'la olmasligidadir: uy yoki kvartira zo'ravonga tegishli bo'lsa ham, u chiqarib yuboriladi. Federal statistika ma'lumotlariga ko'ra, GewSchG asosida chiqarilgan himoya buyruqlari soni 2020-yilda 33 000 dan oshgan. Psixologik zo'ravonlik ham qonun doirasida alohida ta'rif va sanksiyaga ega.¹⁹

Turkiyaning 6284-sonli Qonuni "Oilani himoya qilish va ayollarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish to'g'risida" (2012) Istanbul konvensiyasini bevosita amalga oshirishga qaratilgan birinchi milliy qonunlardan hisoblanadi. Qonun jabrdiydalarni himoya qilish uchun uchta parallel mexanizmni nazarda tutadi: politsiya, prokuratura va sudlar

tomonidan har biri mustaqil ravishda himoya buyrug'i bera oladi.²⁰ Turkiya qonunchiligida eng diqqatga sazovor element — ShÖNİM (Şiddet Önleme ve İzleme Merkezi, ya'ni Zo'ravonlikning oldini olish va monitoring markazi) tarmog'idir. Ushbu markazlar zo'ravon tomonidan himoya buyrug'ining bajarilishini kuzatib boradi, jabrdiydaga psixologik va ijtimoiy yordam ko'rsatadi hamda politsiya, sud va ijtimoiy xizmatlar o'rtasida koordinatsiyani ta'minlaydi.

O'zbekiston bilan umumiy huquqiy-madaniy merosga ega bo'lgan Qozog'iston tajribasi ayniqsa o'rganishga loyiq. 2009-yilgi Qonundan so'ng 2017-yilda Qozog'istonda oilaviy zo'ravonlik jinoyatdan ma'muriy huquqbuzarlik darajasiga tushirildi. Natijada sud ishlarining soni keskin kamaydi, biroq bu jabrdiyda himoyasining kuchayganligini emas, balki huquqiy ta'sirning zaiflashganligini anglatardi: ko'plab oilalar rasmiy tizimga murojaat etishni to'xtatdi.²¹

Human Rights Watch 2021-yilgi hisobotida ushbu islohotni keskin tanqid qilib, oilaviy zo'ravonlikning dekriminalizatsiyasi ayollar hayot xavfsizligiga jiddiy salbiy ta'sir qilganini tasdiqlovchi dalillar keltirdi. 2021-yilda Qozog'iston ushbu siyosatini qayta ko'rib chiqa boshladi va muayyan holatlar uchun jinoiy javobgarlikni tiklab bormoqda. Bu tajriba O'zbekiston uchun zo'ravonlikni dekriminalizatsiya qilishdan qat'iy saqlanish zarurligini ko'rsatuvchi muhim ibrat hisoblanadi.²²



Buyuk Britaniyaning 2021-yilgi Maishiy zo'ravonlik to'g'risidagi Qonuni (Domestic Abuse Act 2021) oilaviy zo'ravonlikning iqtisodiy va psixologik shakllarini, jumladan "nazorat va majburlash" (controlling or coercive behaviour) xatti-harakatlarini alohida jinoyat sifatida mustahkamladi. Bu qonun barcha yo'nalishlarda gender-neytral tuzilgan, ya'ni nafaqat ayollar, balki erkaklar ham jabrdiyda sifatida huquqiy himoyadan foydalanishi mumkin.²³ Qonunning eng muhim yangiligi — "zo'ravonlik guvohi bo'lgan bola" (child as victim) kontseptsiasining normativ mustahkamlanishidir. Unga ko'ra, zo'ravonlikni bevosita ko'rgan yoki eshitgan bola, hatto jismoniy jarohat olmagan bo'lsa ham, qonuniy jihatdan zo'ravonlik qurboni sifatida tan olinadi va unga alohida huquqiy himoya, psixologik rehabilitatsiya hamda ijtimoiy yordam ko'rsatish davlat majburiyatiga aylanadi. Ushbu innovatsiya zamonaviy travma-psixologiyasining eng so'nggi ilmiy yutuqlariga asoslanadi.

O'tkazilgan qiyosiy tahlil quyidagi umumlashtirilgan topilmalarga olib keldi:

Birinchidan, barcha o'rganilgan davlatlar oilaviy zo'ravonlik sohasida alohida maxsus qonunchilikni shakllantirgan bo'lib, umumiy jinoyat kodeksiga tayanish yetarli emas degan xulosaga kelishgan. O'zbekiston bu yo'lda yaxshi qadam tashlagan bo'lsa-da, qonunning sifati va amaliy tatbiqi hali takomillashtirishni talab qiladi.

Ikkinchidan, Ispaniya, Germaniya va Turkiya tajribalari himoya buyrug'i

institutining samarali ishlashi uchun uchta shart zarurligini ko'rsatadi: muddatning yetarliligi (kamida 3 oy), buzilishi uchun muqarrar va og'ir javobgarlik, hamda buyruqning bajarilishini nazorat qiluvchi maxsus monitoring tizimi.

Uchinchidan, Buyuk Britaniya tajribasi bolalar himoyasi sohasidagi huquqiy qonunchilik rivojlanishining eng ilg'or nuqtasini ifodalaydi. "Guvoh jabrdiyda" kontseptsiyasi o'zbek qonunchiligida mutlaqo yo'q bo'lib, bu sezilarli huquqiy bo'shliqni anglatadi.

To'rtinchidan, Qozog'iston tajribasi dekriminalizatsiya siyosatining muvaffaqiyatsizligini ko'rsatdi va oilaviy zo'ravonlikni jinoyat sohasida qoldirish, hatto sanksiyalarni kuchaytirish zarurligini tasdiqladi.

Olib borilgan qiyosiy tahlil va aniqlangan muammolardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasida oilaviy zo'ravonlikdan ayollar va bolalarni huquqiy himoya qilish tizimini takomillashtirish uchun quyidagi takliflarni ishlab chiqdim, ularni amaliyotga tatbiq etilishi zarur deb hisoblayman:

Birinchidan, tushunchalar tizimini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish. Istanbul konvensiyasining 3-moddasida belgilangan "gender asosidagi zo'ravonlik", "nazorat va majburlash" hamda "iqtisodiy zo'ravonlik" ta'riflarini 2019-yilgi Qonunning 2-moddasiga kiritish zarur. Bu o'zgartirish amaliyotda zo'ravonlik holatlarini noto'g'ri yoki cheklangan talqin qilishning oldini oladi.



Ikkinchidan, bolalarning "guvoh jabrdiyda" maqomini normativ mustahkamlash. Buyuk Britaniyaning DAA 2021 tajribasiga asoslanib, "Voyaga yetmaganlarni himoya qilish to'g'risida"gi Qonunga oilaviy zo'ravonlikni bevosita kuzatgan bolani huquqiy jabrdiyda deb tan oladigan moddaning kiritilishi tavsiya etiladi. Ushbu yangilik psixologik travma oldini olish va bolalar rehabilitatsiyasini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Uchinchidan, psixologik va iqtisodiy zo'ravonlik uchun alohida jinoyat tarkibini shakllantirish. Buyuk Britaniya modeliga asoslanib, "nazorat va majburlash" harakatlari hamda sistematik iqtisodiy zo'ravonlik holatlarini alohida jinoyat tarkibi sifatida Jinoyat kodeksiga kiritish tavsiya etiladi. Bu, ayollar ko'pincha jismoniy kuch ishlatilmasdan ham uzoq vaqt zo'ravonlikka duchor bo'lishi mumkinligini huquqiy jihatdan tan olishni bildiradi.

To'rtinchidan, ixtisoslashtirilgan sudlar bo'limlarini shakllantirish. Toshkent shahrida oilaviy zo'ravonlik bo'yicha ixtisoslashtirilgan sud bo'linmasining pilot loyiha sifatida tashkil etilishi va 3 yillik monitoring natijalari asosida viloyatlarga tarqatilishi tavsiya etiladi. Ispaniya modelidan farqli o'laroq, alohida mustaqil sud emas, balki mavjud tuzilma ichidagi ixtisoslashtirilgan bo'lim ko'inishi O'zbekiston uchun maqulroq va samaraliroq bo'ladi.

Beshinchidan, zo'ravonlikning oldini olish va monitoring markazlari tarmog'ini shakllantirish. Turkiyaning ShÖNİM modeliga o'xshash tarzda har

bir viloyat markazida ko'p idorali koordinatsiya markazi tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Ushbu markazlar politsiya, prokuratura, ijtimoiy xizmatlar va nodavlat tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirishi, 24 soatlik murojaat qabulini ta'minlashi va retsidiv holatlarni kuzatib borishi lozim.

Oltinchidan, boshpanalar (krizis markazlar) tarmog'ini kengaytirish. BMT standart me'yoriga ko'ra har 10 000 aholiga kamida 1 ta boshpana o'rne bo'lishi lozim. Hozirgi holatda O'zbekiston bu me'yordan ancha past. Davlat-xususiy sheriklik asosida boshpanalar tarmog'ini kengaytirish, mavjud nodavlat tashkilotlarga maqsadli moliyaviy yordam ko'rsatish va ularni ijaraga berish mexanizmini joriy etish tavsiya etiladi.

Yettinchidan, maktab ta'lim dasturlariga erta huquqiy va gender savodxonligini kiritish. Skandinaviya davlatlari tajribasi ko'rsatadiki, maktab yoshidan boshlab zo'ravonliksiz munosabatlar, gender tengligi va o'z huquqlari haqida bilim berish uzoq muddatda zo'ravonlik holatlari sonini kamaytirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich va o'rta ta'lim dasturlariga ushbu komponentlarni maqsadli kiritish tavsiya etiladi.

Ushbu tadqiqot shuni yaqqol ko'rsatdiki, oilaviy zo'ravonlikdan ayollar va bolalarni huquqiy himoya qilish tizimini takomillashtirish — bu nafaqat insoniy qadriyat, balki zamonaviy davlat siyosatining asosiy vazifasidir. O'zbekiston 2019-yilgi Qonun bilan



muhim va asosli qadam tashladi, biroq xorijiy davlatlar tajribasi va xalqaro standartlar bilan o'tkazilgan qiyosiy tahlil bir qator jiddiy bo'shliqlar mavjudligini tasdiqladi.

Maqola doirasida aniqlangan asosiy muammolar — tushunchalar noaniqligi, himoya buyrug'i zaifligi, ijtimoiy infrastruktura yetarli emasligi, bolalar "guvoh jabrdiyda" maqomining yo'qligi va ixtisoslashtirilgan kadrlar tanqisligi — bir-biriga bog'liq bo'lib, ularning har biri alohida, kompleks holda esa kuchliroq ravishda huquqiy himoyaning samaradorligini pasaytirmoqda.

Ishlab chiqilgan takliflar esa uchta asosiy yo'nalishni qamrab oladi: qonunchilik islohotlari (tushunchalar tizimi, himoya buyrug'i, bolalar maqomi), institutsional o'zgarishlar

(ixtisoslashtirilgan sudlar, monitoring markazlari, boshpanalar tarmog'i) va uzoq muddatli profilaktika (maktab ta'limi, kadrlar tayyorlash). Ushbu takliflar birgalikda amalga oshirilganda O'zbekiston Istanbul konvensiyasini kelajakda ratifikatsiya qilish uchun zarur normativ va institutsional zaminni ham yarata oladi.

Huquqiy islohot — o'z-o'zicha yetarli emas va hech qachon ham bo'lmagan. U ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar, ommaviy axborot, ta'lim va ilmiy-tadqiqot ishlarining to'laonli qo'llab-quvvatlashi bilan birgalikda amalga oshirilgandagina haqiqiy o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Faqat shundagina oila — xavfsiz panoh bo'lib qoladi, qo'rquv va og'riq manbaiga emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. World Health Organization (WHO). (2021). Violence against women prevalence estimates, 2018: Global, regional and national prevalence estimates for intimate partner violence against women and global and regional prevalence estimates for non-partner sexual violence against women. Geneva: WHO Press.
2. O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar masalalari agentligi. (2023). Oilaviy zo'ravonlik bo'yicha statistik ma'lumotlar. Toshkent: Agentlik nashri.
3. Ibrohimov, A.X. (2021). O'zbekistonda oilaviy zo'ravonlikning oldini olish qonunchiligini takomillashtirish muammolari. Yuridik fanlar vestniki, 3(18), 44–52.
4. Dobash, R.E., & Dobash, R.P. (1979). Violence against wives: A case against the patriarchy. New York: Free Press.
5. Walker, L.E. (1979). The battered woman. New York: Harper & Row.
6. Johnson, M.P. (2008). A typology of domestic violence: Intimate terrorism, violent resistance, and situational couple violence. Boston: Northeastern University Press.
7. Toshmatov, X.T. (2018). O'zbekiston Respublikasida oila huquqining shakllanishi va rivojlanishi. Toshkent: TDYuI nashriyoti.



8. Yusupova, D.N. (2022). Oilaviy zo'ravonlikka qarshi huquqiy kurash: milliy qonunchilik muammolari. Zamonaviy huquq, 2(11), 88–96.
9. Walby, S. (2009). The cost of domestic violence: Update 2009. Lancaster University / Women and Equality Unit, UK Government.
10. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (1994-yil 22-sentyabr, keyingi o'zgartish va qo'shimchalar bilan). Toshkent: Adolat nashriyoti.
11. O'zbekiston Respublikasining "Oilaviy zo'ravonlikning oldini olish va unga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-587-son, 2019-yil 2-sentyabr. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, lex.uz
12. O'zbekiston Respublikasining "Ayollar va erkaklarning teng huquqliligi va teng imkoniyatlari to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-583-son, 2019-yil 2-sentyabr. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasi, lex.uz
13. Council of Europe. (2011). Council of Europe Convention on preventing and combating violence against women and domestic violence (CETS No. 210). Istanbul: Council of Europe Treaty Office.
14. United Nations General Assembly. (1993). Declaration on the Elimination of Violence against Women. Resolution A/RES/48/104. New York: United Nations.
15. Spain. (2004). Ley Orgánica 1/2004, de 28 de diciembre, de Medidas de Protección Integral contra la Violencia de Género. Boletín Oficial del Estado, No. 313, 42166–42197.
16. Ministerio del Interior de España. (2016). Balance de la lucha contra la violencia de género 2015. Madrid: Delegación del Gobierno para la Violencia de Género.
17. Consejo General del Poder Judicial. (2022). Informe anual de violencia doméstica y de género. Madrid: CGPJ Observatorio contra la Violencia Doméstica y de Género.
18. Germany. (2002). Gesetz zum zivilrechtlichen Schutz vor Gewalttaten und Nachstellungen (Gewaltschutzgesetz — GewSchG) vom 11. Dezember 2001. Bundesgesetzblatt, Jahrgang 2001, Teil I, Nr. 67, 3513.
19. Statistisches Bundesamt (Destatis). (2021). Statistik zu Schutzanordnungen nach dem Gewaltschutzgesetz: Ergebnisse 2020. Wiesbaden: Destatis.
20. Turkey. (2012). Law No. 6284 on the Protection of Family and Prevention of Violence Against Women (Ailenin Korunması ve Kadına Karşı Şiddetin Önlenmesine Dair Kanun). Official Gazette of the Republic of Turkey, No. 28239.
21. Kazakhstan. (2009). Law of the Republic of Kazakhstan "On the Prevention of Domestic Violence". No. 214-IV, 4 December 2009. Almaty: Official Publication.
22. Human Rights Watch. (2021). Kazakhstan: Domestic violence law failing women. New York: Human Rights Watch. <https://www.hrw.org/news/2021/02/25/kazakhstan-domestic-violence-law-failing-women>
23. United Kingdom. (2021). Domestic Abuse Act 2021. Chapter 17. London: Her Majesty's Stationery Office (HMSO).



Latin American Journal of Education

www.lajoe.org

